

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi  
№ 376  
2019 yil «  »   

«TASDIQLAYMAN»  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
Prof. A. Suleev

«  »    2019 yil

AHOLI GEOGRAFIYASI  
FANINING  
ISHCHI-O'QUV DASTURI

Bilim soxasi: 1000000 - Gumanitar soha  
Ta'lim soxasi: 140000 - Tabiiy fanlar  
Ta'lim yunalishi: 5140600 - "Geografiya" bakalavr ixtisosli uchun

Samarqand-2019

Fanning ishchi o'quv dasturi namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Qodirov M.A. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n.  
Ibragimov L.Z. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida dotsenti, g.f.n.  
g.f.n.g.f.n.g.f.n.


**Taqrizchilar:**

Alibekov L. A. - Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida professori, g.f.d.

Mamatqulov X.M - SamISI Xalqaro turizm va turizm servisi kafedrasida dotsenti, g.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2019 yil \_\_\_  
dagi № \_\_\_ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashiga muhokama  
qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



Qodirov M.A.

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti kengashida muhokama  
etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil \_\_\_ dagi № \_\_\_-sonli bayonoma)

Fakultet uslubiy kengashi raisi:

dots. T.J. Jumaboyev

Fakultet dekani

dots. L.Z. Ibragimov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshligi:

dots. B. Aliqulov



## Kirish

Ushbu dastur aholi geografiyasi fanining geografiya va aholishunoslik fanlari tizimidagi tutgan o'rni, aholi sonining dinamikasi, aholi tarkibi, joylashishi, aholi manzilgohlari va ularning geografiyasi, aholi migratsiyasi va urbanizatsiya kabi masalalarni qamrab oladi. Malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

### O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga Er yuzida va alohida mamalakatlarda aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar (dinamikasi), aholi joylashishi va xududiy harakati to'g'risida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga aholi joylashishi qonuniyatlarini haqida bilimlar berish, uning soni va tarkibini tahlil qilish va buning asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

### Fan bo'yicha talabalar bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Aholi geografiyasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- dunyo aholisining er yuzi bo'yicha taqsimlanishini, unga ta'sir etuvchi omillarni va joylashish qonuniyatlarini, demografik ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini *bilishi*;

- aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlarini hisoblash; aholi zichligini hisoblash va uni tahlil qilish; aholi zichligi va tarkibi bo'yicha kartalarni chizish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- barcha aholi kartalarini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanib, yangi bilimlar olish, olgan bilimlarini o'quvchilarga tushunarli qilib etkazish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

### Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Aholi geografiyasi” – asosiy mutaxassislik fani hisoblanib, 4 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, ximiya), umumkasbiy (umumiy er bilimi, topografiya va kartografiya asoslari, jahon geografiyasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari, hududiy majmualarning nazariy asoslari, O'zbekiston geografiyasi) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi. **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Aholi haqidagi nazariy bilimlar xalq xo'jaligining turli sohalarida muhim amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, davlat boshqaruv organlari (mehnat, statistika, iqtisodiyot, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlari), oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarida ushbu soha mutaxassislariga talab katta. Aholi geografiyasi bo'yicha olingan ko'nikmalardan o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'z o'lkalarida aholi va mehnat resurslari haqidagi bilimlarni o'quvchilarga etkazishda foydalaniladi.

### Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining “Aholi geografiyasi” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar chog'ida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

“Aholi geografiyasi” fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- aholi geografiyasi nazariyasi bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;
- aholining soni va tarkibini, migratsiyasini o'rganish mashg'ulotlarida aqliy xujum, guruhli fikrlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan.

### Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining “Aholi geografiyasi” o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, bu jarayonda yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, turli mavzudagi xaritalar elektron materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mavzuga mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Bundan keng kulamli bilimlarni o'zlashtirish uchun talabalarni “Aholi geografiyasi” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni, xususan, “Bumerang”, “Elpig'ich”, “Aqliy xujum”, “Masofaviy ta'lim”, “Zanjir”, “Klaster” hamda “Muammoli ta'lim” texnologiyasining “Munozarali dars” kabi usullarini qo'llash o'rinlidir.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish. “Aholi geografiyasi” kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum birta'lim

oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keystadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "Aholi geografiyasi" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Slayd" elektron jadvallardan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

#### **Aholi geografiyasi fanidan mavzular va saotlar bo'yicha taqsimlanishi:**

№	Ma'ruzalar nomi	Jami saotlar	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ish
1	Aholi geografiyasi fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot metodlari		2		
2	Aholi to'g'risida ma'lumotlar va ularning manbalari, Dunyo aholi soni va uning dinamikasi		2		
3	Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari va Aholining tabiiy harakati		2		
4	Aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, Aholisi takror barpo bo'lishi va uning turlari		2		
5	Dunyo aholisining yosh-jinsiy tarkibi, Nikoh va ajralish		2		
6	Demografik qarish, Aholining irqiy, etnik tarkibi, Dinlar geografiyasi		2		
7	Aholining ijtimoiy tarkibi, Mehnat resurslari va aholining bandligi		2		
8	Migratsiya va uning turlari, Xalqaro migratsiya va dunyo aholisi mexanik harakati		2		
9	Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari, turlari Shaharlar va Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi		2		
10	O'zbekistonda aholi geografiyasi		2		
	<b>Jami</b>		<b>20</b>		

<b>Amaliy mashg'ulotlar</b>					
1	Dunyo davlatlari aholi dinamikasini baholash			2	
2	Dunyo aholisi irqiy, etnik, diniy tarkibi kartasini ishlash, Aholi takror barpo bo'lishini hududlar miqyosida o'rganish, Dunyo aholi zichligi kartasini tuzish			2	
3	Jahondagi yirik shaharlarning aholi soniga ko'ra tiplarga ajratish, Dunyo mamlakatlari migratsiya siyosati			2	
4	Jahonda urbanizatsiyasi darajasi yuqori va past bo'lgan davlatlarni aniqlash, Dunyo aholisining til oilalari bo'yicha guruhlariga ajratish va kartasi bilan ishlash			2	
5	O'zbekiston shaharlarini aholi soniga ko'ra guruhlar, O'zbekiston aholisi zichligi kartasini tuzish			2	
	<b>Jami</b>			10	
<b>Mustaqil ish mavzulari</b>					
1	Aholining iqtisodiy, ma'lumotlilik va ijtimoiy tarkibi				8
2	"Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati				10
3	O'zbekiston aholisi va joylanishi				10
4	Aholining oilaviy tarkibi				8
5	Rivojlanayotgan mamlakatlar demografik siyosati				10
6	Aholi mexanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash				8
7	Demografik tadqiqotlar rivojlanishi tarixi				10
7	Aholi geografiasining fan sifatida shakllanishi				10
9	MDH davlatlari aholisi demografik vaziyati				8
10	Geodemografiya va demogeografiya.				8
11	Nikoh va ajralish				8
12	Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari				10
13	Dunyo mamlakatlari demografik siyosatlarini				10
14	Dunyo aholisi migratsiyasi				8
15	Urbanizatsiya jarayoni				8
16	Dunyo shaharlari				10
17	Demografik o'tish konsepsiyasi				8
18	XX asrda aholi geografiasini				10
	<b>Jami</b>	<b>122</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>162</b>

#### **Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (maruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosida tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DS asosida etkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamra' olishi hamda qan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

#### **MA'RUZA MASHG'ULOTLARI**

##### **Aholi geografiasini fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.**

Aholi geografiasining predmeti. Aholi geografiasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari. Fanning asosiy vazifalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

##### **Aholi geografiasining fanlar tizimidagi o'rni va tadqiqot metodlari.**

Uni fanlar tizimidagi o'rimi, fanlararo aloqalari. Tadqiq etish metodlari. Aholi geografiasining asosiy bo'limlari. Aholi geografiasini xorijda va O'zbekistonda tadqiq etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholi to'g'risida ma'lumotlar va ularning manbalari**

Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari haqida umumiy tavsiflar. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlarining joriy hisobi. Maxsus, tanlama tadqiqotlar, registrlar, aholini joriy hisobga olish. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlarda aholi sonini ro'yxatga olish. Aholi soni dinamikasi (tadrijiy o'zgarishlari). Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi. Aholi ko'payishi tarixiy bosqichlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Dunyo aholi soni va uning dinamikasi**

Dunyo aholisi dinamikasi, mohiyati va tushuncha. Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruhlash. Aholi soni dinamikasini ifodalovchi asosiy, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar: aholining mutloq ko'payishi o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish va ko'payish sur'atlari. Dunyo mamlakatlarini aholi soni bo'yicha klassifikatsiyalash. Aholi soni ko'payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari. Er shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Er shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari**

Dunyo mamlakatlarini aholi soni bo'yicha klassifikatsiyalash. Aholi soni ko'payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari. Er shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholining tabiiy harakati**

Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish. Aholi tabiiy harakatining dunyo mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi. Tug'ilish va uning geografiasini. Reprodukiv yosh va reproduktiv mayl haqida tushuncha. Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillar. Tug'ilishni ifodalovchi ko'rsatkichlar: nisbiy va mutloq (tug'ilishning umumiy koeffitsienti, yig'indi koeffitsienti, netto va brutto koeffitsientlari).

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi**

Aholi o'limi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi va ularning geografiasini. Aholi o'limi va tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi to'g'risida tushuncha. O'limning asosiy turlari: go'daklar, bolalar, kattalar o'limi. Aholi o'limini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar: umumiy, maxsus, standartlashgan o'lim koeffitsientlari. Aholi o'limiga olib keluvchi asosiy omillar: endogen, ekzogen, kvaziendogen. Dunyo aholisi o'limining dinamikasidagi o'zgarishlar. Dunyo aholisi o'limi pasayishidagi va umr ko'rish davomiyligi uzayishidagi globallashuv.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholining takror barpo bo'lishi**

Aholi soni va dinamikasi. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, aholi soni dinamikasi, aholi tarkor barpo bo'lish xususiyatlari, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlar aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi takror barpo bo'lish bosqichlari, aholi soni o'sishi yoki kamyishi bilan bog'liq muammolar, aholishunoslikning qonun va qonuniyatlari. Aholi takror barpo bo'lishi, ya'ni tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, kabi jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholining yosh va jinsiy tarkibi**

Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari. Aholi jinsiy tarkibining yoshga nisbatan o'zgarib borishi, undagi birlamchi (bolalik va o'smirlilik), ikkilamchi (balog'at yoshlik) va uchlamchi (etuklik va qarilik) yoshdagilar o'rtasidagi jinsiy nisbatlar. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholning yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Nikoh va ajralish**

Aholinig oilaviy tarkibi. Nikoh shakllari – monogamiya (yakka juftlik), poligamiya (ko'p xotinlik, ko'p erlik) oilalar va ularning geografiasini. Bir millatli va aralash millatli nikohlar. Ajralishlar. Oilani rejalashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Demografik qarish**

Dunyo mamlakatlari aholisini yosh tarkibi bo'yicha tiplari: "yosh" va "qari" mamlakatlar. Aholi yosh-jins tarkibi piramidasi va uni tuzish prinsiplari. Aholi qarishining mohiyati. Aholi qarishining o'rganishning asosiy mezonlari. BMTning aholi qarishi mezonlari. Aholi qarish jarayonini iqtisodiy geografik o'rganishning yangicha yondoshuvlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Jahon aholisining irqiy tarkibi**

«Irq» haqida tushuncha. Jahon aholisining irqiy tarkibi. Insoniyatning katta evropoid, mongoloid, negroid, avstroloid va ko'p sonli mayda irqlardan tarkib topganligi. Sof va aralash irq, ularning antropologik farqlari. Irqlar kelib chiqishining biologik asosligi. Irqlararo munosabatlar. Irqchilik va aparteid siyosatlarining qoralanishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Dunyo aholisining milliy-etnik tarkibi.**

«Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari. Xalqaro milliy munosabatlar. Yirik va kichik tillar va millatlar. Bir millatli va ko'p millatli mamlakatlar, milliy-etnik jarayonlar: konsolidatsiya, assimilyatsiya, integratsiya, ularning jahon siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, o'z-o'zini nazorat* Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8.

#### **Dinlar geografiyasi**

Aholining diniy tarkibi. Arxaik, milliy va dunyoviy dinlar. Xristian, islom, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni. Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri. Yirik diniy ziyoratgohlar va ularning xalqaro aholi migratsiyasidagi roli.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholining ijtimoiy tarkibi**

Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi. Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Mehnat resurslari va aholi bandligi**

«Mehnat resurslari», «iqtisodiy faol aholi» tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnatda band aholi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekistonda mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish holatlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Migratsiya va uning turlari**

Migratsiya haqida tushuncha. Migratsiya turlari: doimiy, vaqtinchalik va mayatniksimon (mokkisimon), ularning shakllari va xususiyatlari. Migratsiya turlari. Migratsiyani hisobga olish. Ichki va tashqi, ixtiyoriy va majburiy migratsiyalar. Migratsiyaning alohida hududlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Migratsiya omillari: siyosiy, milliy-etnik, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Xalqaro migratsiya va dunyo aholisi mexanik harakati**

Xalqaro migratsion harakatlar tarixi, ularning alohida materiklar, o'lkalar yoki hududlarning iqtisodiy o'zlashtirishdagi roli. Tashqi migratsii. Emigratsiya, immigratsiya, reemigratsiya, deportatsiya tushunchalari va ularning xususiyatlari. «Oqillar ko'chishi», yashirin migratsiya va ularning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari. MDH va O'zbekistonda aholi migratsiyasi va uning xususiyatlari. Migratsion siyosat.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholi va aholi manzilgohlari joylanishi, shakllari, turlari**

Aholi zichligi haqida tushuncha, uning mohiyati, hisoblash yo'llari. Aholi zichligi va hududning o'zlashtirilishi darajasi. Aholi zichligi bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar. Hududning demografik, mutloq va nisbiy sig'imlari haqida tushuncha.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholi punktlari geografiyasi, uning geografik shakllari va turlari**

Aholining joylashishi va manzilgohlari haqida umumiy tushuncha. Aholi joylashishining asosiy shakllari. SHaharlar, shaharchalar va ular tizimi haqida tushuncha. Qishloq aholi manzilgohlarga shahar maqomini berish mezonlari. Qishloq aholi manzilgohlarining turlari. Aholining joylashishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **SHaharlar, ularning guruhlanishi va geografiyasi**

SHaharlar tizimi. SHaharlar, ularning guruhlanishi va geografiyasi. SHaharlar tizimi va ularning shakllari: tarqoq, guruh-guruh shaharlar, urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, Oykumenopolis haqida tushunchalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*  
Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari.**

Jahon urbanizatsiyasi. Urbanizatsiya tushunchasi. Turli mamlakatlarda urbanizatsiya darajasining xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari. Urbanizatsiyaning «ichki» (vertikal) va «tashqi» (gorizontal) rivojlanishi. Suburbanizatsiya, rurbanizatsiya jarayonlari. Urbanizatsiyalashgan mintaqalar, megapolislar, aglomeratsiyalar, oykumenopolislar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*  
Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Qishloq aholisi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi**

Qishloq aholisi soni, dinamikasi, geografik tarqalishi. Qishloq aholi manzilgohlari turlari, vazifalari, o'lchami, klassifikatsiyalari. Qishloq aholi manzilgohlari tizimi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Aralash qishloqlar. Qishloq aholi manzilgohlarining turlari. Qishloq aholi manzilgohlarining dunyo aholisi ko'payishi va tarqalishidagi roli. Aholining joylanishi va xo'jalikni hududiy tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*  
Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **O'zbekistonda aholi geografiyasi**

O'zbekiston aholisi geografiasining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston aholisi soni dinamikasi, tarkibi, aholi takror barpo bo'lishi va uning mintaqaviy jihatlari. Tug'ilish, o'lim va aholining tabiiy harakati. Respublika aholisining demografik tarkibi. Mamlakatda aholining bandligi va mehnat resurslari muammosi. O'zbekiston aholisi migratsiyasi. Aholining joylanishi geografiyasi. Aholi punktlari, respublika qishloqlari, shaharlari geografiyasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bliz o'z-o'zini nazorat*  
Adabiyotlar: A1;A2;A3;A4; A5; Q6;Q7;Q8;Q9.

#### **Aholi geografiyasi fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining kalendar tematik rejasi**

<b>№</b>	<b>Ma'ruzalar nomi</b>	<b>Jami soatlar</b>
<b>1</b>	<b>Aholi geografiyasi fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot metodlari</b>	<b>2</b>
1.1	Fanning ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari	
1.2	Aholi geografiasining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari	
1.3	Fanning asosiy vazifalari.	
1.4	Uni fanlar tizimidagi o'rni, fanlararo aloqalari.	
1.5	Tadqiqot metodlari.	
1.6	Aholi geografiasining asosiy bo'limlari	
1.7	Aholi geografiasini xorijda va O'zbekistonda tadqiq etish.	
<b>2</b>	<b>Aholi to'g'risida ma'lumotlar va ularning manbalari, Dunyo aholi soni va uning dinamikasi</b>	<b>2</b>
2.1	Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari xaqida umumiy tavsiflar	
2.2	Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati	
2.3	Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar	
2.4	Aholining kategoriyalari: doimiy, vaqtincha, mavjud aholi.	
2.5	Dunyo aholisi dinamikasi, mohiyati va tushuncha.	
2.6	Aholining mutloq ko'payishi o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish va ko'payish sur'atlari.	
2.7	Aholi soni dinamikasi bo'yicha davlatlarni ajratish, guruhlash.	
2.8	Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari	
<b>3</b>	<b>Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari Aholining tabiiy harakati</b>	<b>2</b>
3.1	Yer shari mintaqalari aholisi soni dinamikasining geografik xususiyatlari	
3.2	Aholi soni ko'payishidagi tengsizlikning asosiy sabablari va oqibatlari	
3.3	Dunyo mamlakatlarini aholi soni bo'yicha klassifikatsiyalash	
3.4	Aholi tabiiy harakati: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish	
3.5	Aholi tabiiy harakatining dunyo mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi	
3.6	Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillar.	
3.7	Reproduktiv yosh va reproduktiv mayl xaqida tushuncha.	



<b>4</b>	<b>Aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, Aholisi takror barpo bo'lishi va uning turlari</b>	<b>2</b>
4.1	Aholi o'limi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi va ularning geografiyasi.	
4.2	Aholi o'limiga olib keluvchi asosiy omillar	
4.3	Aholi o'limi va tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi	
4.4	O'limning asosiy turlari: go'daklar, bolalar, kattalar o'limi.	
<b>4.5</b>	Aholi takror barpo bo'lish bosqichlari, aholi soni o'sishi yoki kamyishi bilan bog'liq muammolar	
4.6	Aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar	
<b>5</b>	<b>Dunyo aholisining yosh-jinsiy tarkibi, Nikoh va ajralish</b>	<b>2</b>
5.1	Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi	
5.2	Aholi jinsiy tarkibining yoshga nisbatan o'zgarib borishi	
5.3	Aholning yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari.	
5.4	Nikoh shakllari va uning turlari	
5.5	Ajralishlar.	
5.6	Oilani rejalashtirish	
<b>6</b>	<b>Demografik qarish, Aholining irqiy, etnik tarkibi, Dinlar geografiyasi</b>	<b>2</b>
6.1	Dunyo mamlakatlari aholisini yosh tarkibi bo'yicha tiplari	
6.2	Aholi qarishining o'rganishning asosiy mezonlari.	
6.3	BMTning aholi qarishi mezonlari	
6.4	Jahon aholisining irqiy tarkibi.	
6.5	Irqlar kelib chiqishining biologik asosligi.	
6.6	Irqchilik va aparteid siyosatlarining qoralanishi.	
6.7	«Etnos», «elat», «millat», «xalq» tushunchalari.	
6.8	Xalqaro milliy munosabatlar	
6.9	Yirik va kichik tillar va millatlar.	
6.10	Bir millatli va ko'p millatli mamlakatlar	
6.11	Aholining diniy tarkibi.	
6.12	Xristian, islom, budda dinlari geografiyasi va ularning jahon siyosiy-ijtimoiy munosabatlaridagi o'rni.	
6.13	Dinlarning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri.	2
<b>7</b>	<b>Aholining ijtimoiy tarkibi, Mexnat resurslari va aholining bandligi</b>	
7.1	Aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy funksiyasi.	
7.2	Aholining tabaqalanishi, uning dunyo mintaqalari miqyosida turlanishi	
7.3	Aholi ijtimoiy tarkibi bilan ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik.	
7.4	“Mehnat resurslari”, “iqtisodiy faol aholi” tushunchalari va ularning tarkibi	2
